UO‘K 391.75

O‘ZBEK AYOLLARI TAQINCHOQLARI ETNOGRAFIYASI

Ya.R. Turaboyeva

Maqolada o‘zbek ayollarining ko‘p yillar davomida asrab kelgan va kelajak avlodlarga o‘z milliy madaniyatini targ‘ib etayotgan moddiy merosi ayollar taqinchoqlari, ular bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar, etnomadaniy muloqot jarayoni tahlil etilgan. Xususan, zargarlik zeb-ziynatlari bilan bezatilgan bosh kiyimi mahalliy to‘y liboslari ichida eng asosiysi bo‘lgani, u ko‘pincha onadan qizga meros qilib berilgani, shu asnoda oilaviy an’analar saqlanganligi, kelgusi avlod oilaviy meros egasi sifatida kelajak avlodlarga yetkazish funksiyasini bajarganligi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *taqinchoq, zargarlik, bo‘yin tumor, ko‘krak tumor, qo‘ltiq tumor, yoqut toshi, marjon, zumrad toshi, zabarjad, feruza toshi.*

В статье проанализировно материальное наследие узбекских женщин, сохраняемое на протяжении многих лет и пропагандирующее свою национальную культуру будущим поколениям: женские украшения, связанные с ними обычаи и ритуалы, процесс этнокультурного общения. В частности, исследовано, что головной убор, украшенный ювелирными украшениями, был самым важным среди местных свадебных нарядов, и он часто передавался по наследству от матери к дочери, и таким образом семейные традиции сохранялись, а следующее поколение, как обладатель семейного наследства, выполняло функцию передачи его будущим поколениям.

Ключевые слова: *украшения, ювелирное дело, амулет на шею, амулет на грудь, амулет в подмышечной впадине, рубиновый камень, колье, изумрудный камень, хризолит, бирюза.*

Kirish

Farg‘ona vodiysi etnik jihatdan turfa xil millat va elatlar yashayotgan, migratsiya jarayoni kuchli bo‘lgan mintaqa sifatida minglab an’ana va urf-odatlarga ega etnik guruhlar ichida qorishib, assimilyatsiya jarayonini hosil qilgan hududlardan biridir. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy xalq turmush tarzining ijtimoiy vazifalari jadal o‘zgarib borishiga sabab bo‘ladi. Muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta’minlovchi muhim etnografik belgilardan biri – bu urf-odat va marosimlardir [1. B. 12, 296]. Xususan, o‘zbek ayollari ko‘p yillar davomida asrab kelgan va kelajak avlodlarga o‘z milliy madaniyatini targ‘ib etayotgan taqinchoqlar bilan bog‘liq urf-odatlar va marosimlar borki, ularga quyida alohida to‘xtalib o‘tamiz. Arxeologlarning ta’kidlashlaricha, hunarmandchilik tarixida dastavval ayollar taqinchoqlari paydo bo‘lgan, keyinchalik erkaklarning ham bezaklar taqishi urf bo‘la boshlagan [2. B. 27]. O‘zbeklarda bolalar uchun taqinchoqlar ham yasalgan va ular magik xususiyatlari bilan boshqa taqinchoqlardan ajralib turgan. Bolalar taqinchoqlari turli xil bo‘lib, ular bosh, bo‘yin, qo‘l va kiyimga taqiladigan taqinchoqlardan iborat bo‘lgan [3. B. 104].

Farg‘ona vodiysi ayollar taqinchoqlari go‘zal shakli, bezak usullari, tayyorlanish jarayoni bilan farq qilgan. Zargarlik zeb-ziynatlari bilan bezatilgan bosh kiyimi mahalliy to‘y liboslari ichida eng asosiysi bo‘lgan va u ko‘pincha onadan qizga meros qilib berilgan. Agar xonadonda qiz farzand bo‘lmasa, ayol taqinchoqlarini oilaviy meros sifatida keliniga tuhfa qilgan. Shu asnoda oilaviy an’analar saqlangan va kelgusi avlod oilaviy meros egasi sifatida uni kelajak avlodlarga yetkazish kabi muhim vazifani bajargan.

Material va usullar

Maqolada o‘zbek ayollari an’anaviy taqinchoqlari bilan bog‘liq etnografik tadqiqotlar tahlil etildi, qo‘yilgan masala arxiv materiallari, mavzuga aloqador ilmiy tadqiqot materiallari, muzey eksponatlari misolida ochib berildi. Ushbu manbalar mavzu aniqligini ochishga xizmat qildi. Tadqiqotda etnografik dala tadqiqotlari, tarixiylik, analiz va sintez kabi metodlardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili

Taqinchoqlar oilaviy-maishiy marosimlarda muhim vazifalardan birini bajargan. Farg‘ona vodiysi aholisi orasida bola tug‘ilishi, nikoh to‘yi, motam marosimlarida taqinchoqlar bilan aloqador bir qancha rasm-rusumlar amalga oshirilgan. O‘zbeklarda bolalarga oid rasm-rusumlar tizimida taqinchoqlarning o‘rni alohida ajralib turadi. Bola tug‘ilishi baxtli voqea sanalib, oila a’zolari bunga alohida tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Masalan, homilador ayoldan “oy-kuni” (ya’ni bola dunyoga kelish onlari) yaqinlashganda yoki tug‘ruq paytida ayolning kiyimlaridan barcha tugmalar, ro‘moli yechib, o‘rilgan sochi yoyib qo‘yilgan, taqinchoqlari (munchoq, zirak, uzuklar) yechib olingan. Aks holda tugunlar chaqaloqning dunyoga kelish yo‘lini bog‘laydi deb hisoblangan [4. B. 50]. Shuningdek, munchoq homilador ayol bo‘ynida o‘ralib tursa, uning qornidagi bolasi o‘z kindigiga o‘ralib qoladi, deb ishonishgan. Onalar munchoqda bola ramzini ko‘rgan.

Marjon oppoq sadafdan iborat munchoq turi hisoblanadi. Uning ko‘rinishi ayol bo‘yni va ko‘ksini bezagan, bu holat bola obrazida jonlantirilgan. Ba’zan ayollarning tug‘ruq jarayoni uzoq va azobli kechsa, marjondan maxsus tumor-taqinchoqlar olingan.

O‘zbek oilasida yangi tug‘ilgan chaqaloqni yuvintirishning ham bir qator udumlari bo‘lgan. Xususan, chaqaloqni yuvintirishdan oldin suvga tuz, munchoq, uzuk, kumush tanga, tuproq, bug‘doy, paxta kabilar solib qo‘yilgan [5. B. 16]. Suvga solingan ashyolar xosiyati masalasiga e’tibor qaratsak, tuz gigienik jihatdan chaqaloq terisini qotirgan va turli toshmalar hamda kasalliklarning oldini olishi bilan birga to‘kin-sochinlik va rizq-nasiba ramzi bo‘lgan; shakar chaqaloq hayotining dastlabki lahzalari shirin o‘tishiga yo‘naltirilgan magik niyatda qo‘shilgan; tanga esa boylik, davlat ramzi bo‘lgan; eski paxsa devor tuprog‘i tanaga turli o‘simtalar va tuklar chiqishining oldini olgan; uzuk va tanga bola voyaga yetgach, boy-badavlat bo‘lishi uchun niyat qilingan. Chaqaloq marosimiy tarzda cho‘miltirilgandan so‘ng, hatto uni yuvintirishga ishlatilgan suv ham oyoq ostiga emas, balki biror-bir mevali daraxt tagiga to‘kilgan. O‘z o‘rnida ta’kidlash joizki, chaqaloqni birinchi marta marosimiy cho‘miltirish uning nafaqat gigienik jihatdan poklanishini anglatgan, balki ramziy ma’noda uning bir olamdan ikkinchisiga o‘tishi, ya’ni uning “tabiat” olamidan insonlar dunyosiga o‘tishini ham anglatgan. Bola marosimiy tarzda cho‘miltirilgandan keyingina oilaning rasmiy a’zosi hisoblangan. Va hozirda ham vodiy o‘zbeklarining ba’zi oilalarida bu udumlarga amal qilinadi [6].

Taqinchoqlar bezak ashyosi sifatida qaralsa-da, ular azaldan ayolning har bir bosgan qadamini, pishirgan taomini halollab, poklab, himoyalab turadi degan ishonch bo‘lgan. Shuning uchun nikoh jarayonida kuyov kelinga uzuk bersa, qaynona kelinga sirg‘a sovg‘a qilgan. Nikoh to‘yi kuni kelinga tilla uzuk taqish haqida N.P.Lobachevaning yozishicha, uzuk xalq qarashlarida quyosh ramzi, quyoshning oy yoki er bilan birlashuvi timsolini o‘zida ramziy ifodalaydi [7. B. 58]. Xalq og‘zaki ijodiyotida tilga olingan rivoyatlarda, merganlikda ko‘rsatkich barmoqqa taqilgan uzuk nishonga olish belgisi vazifasini bajargani va merganlikda o‘tkaziladigan musobaqalarda yoyning o‘qini uzukning ko‘zidan o‘tkazish sharti belgilangani kabi afsonalar bor.

O‘tmishda xon va amirlar, amaldorlarning shaxsiy uzugi bo‘lgan, ular hujjatlarga muhr bosish vazifasini bajargan. XVIII–XIX asrlargacha xon, amir, qozi, mingboshi, biy, eshon va mufti kabilarning ham uzuk shaklidagi o‘z muhrlari bo‘lgan. Ular qo‘lning eng kichik barmog‘iga taqilgan va uzuk egasining ism-sharifi, lavozimi va Qur’oni Karim oyatlaridan parchalar ham bitilgan. Shuningdek, ba’zi bir kasb egalarining ham o‘z ramziy uzuklari bo‘lgan [8. B. 159].

Ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida

metall buyumlar ishlab chiqarish to‘rtta asosiy sohaga: temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunukasozlarga bo‘lingan [9. B. 225]. Demak, zargarlik aholi turmushida asosiy vazifalardan birini bajargan va taqinchoqlar bilan bog‘liq turli urf-odat, irim-sirim, qadriyatlar shakllangan. Shuningdek, ularning ba’zilari hozir ham mavjud. Masalan, o‘zbeklarda taqinchoqlar bilan bog‘liq bir qancha urf-odatlar va irim-sirimlar saqlanib qolgan. Kishilar odatda o‘zlarini, oila a’zolari va boshqa yaqin insonlarini yomon ko‘zdan asrash uchun irim qilishadi. Nikoh to‘yi bilan bog‘liq irim-sirimlarda qadimiy diniy e’tiqodlarning ta’sirini, xususan, ibtidoiy dinlarga, zardushtiylik va islom dinlari ta’limotlariga oid ayrim jihatlar uchrab turadi. Tosh va ma’danlarga tilsim, muqaddas va sehr-jodu deb qarash XIX asrda ham saqlanib qoldi. Insonlar taqinchoqlarni shifobaxsh xaloskorlik qudratiga ega, inson taqdirini o‘zgartira oladi, tabiatga ham ta’sir qilib, yomg‘ir yog‘diradi, ekinlarni qurg‘oqchilikdan asrab, baxt-saodat, boylik va omad kelitiradi deb ishonishgan. Taqinchoqlarning xaloskorlik-himoya xususiyatlari deyarli barcha zeb-ziynat buyumlariga munosabatda saqlanib qolgan. O‘zbek oilasida nikoh liboslarining asosini zeb-ziynat buyumlari bezagan. Zargarlik buyumlari ayollarning boshlari uzra tashlangan, ularning yuzlarini aylantirib o‘rashgan, bo‘yi va ko‘kslarini qoplagan, shu yo‘l bilan ular yomon ko‘zlardan va balo-qazolardan “xalos” bo‘lganlar [10. B.146] deb ishonishgan.

Taqinchoqlar ham xuddi kiyimlar singari ming yillar mobaynida shakllangan bo‘lib, ularning o‘ziga xosligi milliy xususiyatlar, bir xalqning boshqa etnos yoki etnik guruhlar bilan o‘zaro iqtisodiy aloqalari, siyosiy tuzumning milliy madaniyatga ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Vodiy ayollari orasida yomon ko‘zdan, suq va kinna tegishidan saqlanish maqsadida 7 dona sedana va qalampirmunchoq urug‘idan tumor qilib taqib yurish odati ommalashgan [11. B. 192]. Shuningdek, ayollar taqadigan tumorlarga boshqa o‘simliklar urug‘lari ham qo‘shib tayyorlangan. Umuman olganda, tumor rangli matodan tikilgan xaltacha bo‘lib, unga chorrahadan olingan 7 ta mayda tosh, 7 ta qalampir donasi, 7 ta sedana urug‘i, 7 ta isiriq urug‘i va 7 ta qovoq urug‘i solinadi. Xaltacha bilan yonma-yon ikkita ko‘zmunchoq tikib qo‘yishadi. Tumorga albatta tanga-chaqa, munchoq, ignachalar osib qo‘yiladi [12. B. 32].

Ayollar tumorlari o‘zining shakli va tuzilishi jihatidan ma’lum darajada bir-biridan farq qiladi. Jumladan, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida to‘g‘ri to‘rtburchakli va uchburchakli tumorlar taqish afzal ko‘rilsa, xivalik o‘zbeklar orasida silindrsimon tumorlar keng tarqalgan [13. B. 144]. To‘rtburchak va uchburchak shaklda tayyorlanadigan tumorlar farg‘onalik o‘troq o‘zbek va tojik aholi orasida keng yoyilgan. Tumorlar tananing qaysi qismiga taqilishiga qarab 3 guruhga – bo‘yin tumor, ko‘krak tumor va qo‘ltiq tumorga ajratilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasiga islom dini kirib kelishi bilan ba’zi bir fetishistik tasavvurlarga ham islomiy talqin berila boshlangan. Xususan, mahalliy ruhoniylar tomonidan arab imlosida Qur’oni Karimdagi ayrim suralar bitilgan qog‘ozlarni tumor ichiga solib yurish boshlangan [14].

Farg‘ona vodiysi o‘zbeklarida motam marosimlarida ham ma’lum urf-odatlar bajarilgan. Mayit chiqqan xonadon ayollari aza davrida taqinchoq taqmagan va o‘zlariga oro bermaganlar. Ayollarning bu holatda yurishi deyarli bir yil davom etgan. Ular oddiy kiyimlar kiyib, ko‘k yoki oq ro‘mol o‘ragan. Buning sababi avvalo marhum ruhiga nisbatan hurmat va jamoat oldida xafalikning alomati sifatida talqin etilgan. Elshunos olim K.Shoniyozov qayd etishicha, qo‘ng‘irot ayollari motam vaqtida barcha taqinchoqlarini – burnidagi letvasi, qulog‘idagi buloqisi, barmog‘idagi uzugi va bilaguzugini yechib qo‘ygan. Koson tumani qarluqlarida ham ayollar barcha taqinchoqlarini yechib qo‘yishi an’anadir [15. B. 153]. Demak, ayollar taqinchoqlari, u xoh katta va xoh kichik bo‘lsin, quvonch, sevgi, baxtiyorlik ramzi hisoblangan va shu bois ular faqat baxtiyor kunlarda, to‘y-hashamlarda hamda bayram kunlaridagina to‘liq holatda taqilgan.

XIX asr oxirlarida ayollar taqinchoq metali va toshlarining magik xususiyatlari borligi, turli kasalliklarda shifobaxsh xususiyatlari mavjud ekanligiga ishonishgan. Insonlar taqinchoqlardagi toshlar shifobaxsh va himoya vositasi ekani, ular bevosita taqdirga ta’sir etishi, baxt, boylik, yutuqlar olib keluvchi, yomg‘ir chaqiruvchi va

qurg‘oqchilikdan asrovchi xususiyatlari borligiga ishonishgan. Shularga asoslanib, quyida zargarlikda foydalaniladigan metall va toshlarning shifobaxsh xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Ayollar cho‘ntak tumori.
XIX asr, Marg‘ilon.



2-rasm. Ayollar bo‘yin tumori.
XIX asr, Namangan.

Feruza toshi yurakni mustahkamlash, qo‘rquvni yo‘qotish, chaqmoq urishidan asrash, chayon va ilonlarning chaqishi oldini olish xususiyatlariga ega, ertalablari feruza toshini ko‘rish ko‘zni ravshanlantiradi. Shuningdek, la’l va yoqut gemorroy, ruhiy kasalliklarni davolaydi. Qur’oni Karimda yoqut va marjon so‘zlari keladi: “ular aniq yoqut va durlardir” [16. B. 344] deyilgan. Qomusiy mutafakkir Abu Rayhon Beruniy “Qur’oni Karim”dagi “marjon” so‘zini dur deb sharhlab: “marvarid (dur yoki marjon) tana a’zolarni mustahkamlaydi, yurakdagi xavotirni yo‘qotadi, ko‘z kasalliklarida shifo beradi. Qon ketishini to‘xtatadi, aqldan ozishdan saqlaydi, og‘izdan yomon hid kelishini davolaydi, jig‘ildon qaynashi, buyrak, katarakta, safro chiqishi, burun shilliq qavatini davolashda va diareya kabi kasalliklarda davo bo‘ladi” deb yozadi.

Zumrad toshiga Abu Rayhon Beruniy X asrda o‘z asarida quyidagicha ta’rif beradi: “har qanday ilon ko‘zi zumrad toshiga tushsa oqib tushadi, ilon chaqqan kishi zumradning ikki donasini yutsa, zahar ta’siridan qutuladi” deydi. Shu bois zumrad konlari atrofida ilonlar yashamas ekan. Olim zumrad so‘zi arabchada “zarbarjad” so‘zi bilan bir ma’noda ishlatilganligi, shu bois o‘zbek ayollari orasida Zarbarjad nomli ismlar borligi haqida gapiradi [17. B. 672]. XIX asr oxirlarida ham zargarlik toshlarining sakral kuchi borligi haqidagi qarashlar saqlanib qoldi.

O‘rta Osiyoda mahalliy zargarlar o‘z hunarini har tomonlama rivojlantirish va mahsulotlarini yuqori san’at darajasiga olib chiqish kabi murakkab vazifani bajarishni istagan, o‘z hunarlariga sodiqligini ko‘rsatish, qadimiy an’analarni davom ettirish uchun ham hunar piri va avliyolari haqiga duo qilganlar. Hunarmandchilikka oid urf-odat va marosimlarning ko‘pchiligida ajdodlar kulti bilan bog‘liq an’ana, usta tomonidan shogirdiga fotiha berish va ajdodlar ruhiga minnatdorchilik bildirish kabilar yaxshi saqlangan. Shu bois ham ko‘plab mahalliy va an’anaviy hunar turlari hozirgi kunga qadar saqlanib kelmoqda.

Zargarlar va zardo‘z ustalar juda kam hollarda tashqaridan notanish inson farzandlarini shogirdlikka olishgan. Bu hunar turlarida asosan kasb-hunarni meros qoldirish udumi mavjud bo‘lib, deyarli barcha zargar va zardo‘zlar ustazodalar bo‘lgan. Manbalarda O‘zbekistonning boshqa mintaqa zargarlaridan farqli o‘laroq, Farg‘ona zargarlari (XIX – XX asr boshlari) orasida ham oila a’zosi bo‘lmagan shogirdlar mavjud bo‘lgan, hunar o‘rganish muddati esa 10 yildan 15 yilgacha cho‘zilgan [18. B. 29]. Axborotchilarining bergan ma’lumotlariga tayanib shuni aytish mumkinki, zargar hunarmandlar shogird sifatida ko‘proq oila a’zolari orasidan tanlagan va aynan oilaning o‘g‘il farzandlariga o‘z hunarlarini o‘rgatishgan, bu an’ana oilaning bir necha avlodlari orasida saqlanib to hozirgi kunga qadar yetib keldi [19].

O‘zbekistonda XX asr boshlariga kelib hunarmandchilik ishlab chiqarishi hududda yashovchi aholi hayotida kun kechirishning asosiy vositasi sifatida muhim ahamiyatli bo‘lgan. XIX asr oxiri va XX asrga kelib siyosiy va mafkuraviy tazyiqlar mahalliy hunarmandlarni ham chetlab o‘tmadi. Ko‘plab hunar turlari asta-sekin yo‘qolib bora boshladi. Buning natijasida mahal-

liy o‘zbeklarning boy an’analari, madaniyati va urf-odatlarini jamlagan milliy qadriyatlar yemirildi, ruslashtirish siyosati jadallik bilan barcha hududlarni qamrab oldi. Xon saroyi hukmronligi tugatilib, Sovet Rossiyasi tarkibiga qo‘shib olingach, Qo‘qon xonligida ijtimoiy va siyosiy vaziyat tubdan o‘zgardi. Bu vaziyatda ham mahalliy o‘zbek ayollarining an’anaviy taqinchoqlar bilan bog‘liq urf-odatlari oilaviy meros sifatida avloddan avlodga o‘tib bordi.

1917-yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng o‘lkada yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni zo‘rlik bilan qaror toptirish boshlandi. Bolsheviklarning natsionalizm siyosati RSFSR Xalq Komissarlari Kengashining 1918-yil 28-iyundagi yirik sanoatni va transportni yalpisiga natsionalizatsiya qilish to‘g‘risidagi dekretidan keyin yana ham avj ola boshladi [20. B. 38]. Oqibatda barcha hunarmandchilik markazlari qatori zargar hunarmandchiligi ham tanazzulga yuz tutdi. Xalq orasidagi milliy an’analar, urf- odatlar, milliy va diniy bayramlarga chek qo‘yildi, ko‘plab hunar egalari uzoq Sibir o‘lkalariga surgun qilindi va bor mol-mulki musodara qilindi.

Tadqiqotchi B.Farmonova XIX asr boshi va XX asrda Farg‘ona vodiysida keng urf bo‘lgan hunar turlaridan biri qimmatbaho metallarga ishlov berish kasbi ekanligi va zeb-ziynat buyumlarining asosiy qismini kumushdan tayyorlangan buyumlar tashkil etishini ta’kidlaydi [21. B. 20]. Ammo XX asrga kelib, ular Rossiyaning fabrikada yasalgan buyumlari bilan raqobatlasha olmadi. Faqat zargar ustalarning san’atga bo‘lgan kuch va g‘ayrati tufayligina mahalliy hunarmandlar ishlari yo‘q bo‘lib ketmadi, mahalliy maktablar, ayniqsa, Andijon maktabi saqlanib qolganligi aytiladi.

San’atshunoslar mustaqillik yillaridagi zargarlik san’atini ikki yo‘nalishga bo‘lib ko‘rsatishni tavsiya etadilar. Ular mahalliy zargarlik san’atida keng qo‘llanilgan shakllarning unutilib borayotgan an’analarini qayta tiklayotgan zargarlar va noan’anaviy yo‘nalishda ijod qilayotganlarga ajratadilar [22. B. 19].

Respublikamizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga hamda iste’dodli shogirdlarni tayyorlashga qo‘shgan hissani rag‘batlantirish maqsadida 1998-yil 1-mayda O‘zbekiston Respublikasi “Xalq ustasi” faxriy unvoni ta’sis etildi [23]. Shuningdek, xalq hunarmandlari va musavvirlari “Hunarmand” uyushmasi, “Tadbirkor ayol” uyushmasi, “Usto” birlashmasi, “Mahalla” jamoat fondining sa’y-harakatlari bilan yo‘qolib borayotgan milliy san’at namunalarini qayta tiklash, an’ana va qadriyatlarni saqlab qolish, mahalliy hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash kabi ezgu ishlar tizimli amalga oshirilib borildi. Bugungi kunda o‘lkaning turli hududlarida o‘z xalqi tarixi va an’analarini ko‘z qorachig‘idek saqlab kelayotgan insonlar qo‘li bilan yaratilgan xalq hunarmandchiligining ajoyib namunalarini uchratish mumkin. Bular ichida amaliy san’at asarlari, kumush va boshqa nodir metallardan yasalgan taqinchoqlar alohida o‘ringa ega. Ular o‘zbek ayolining estetik qadriyatlariga mos bo‘lib, kiyim komponenti vazifasini bajaradi.

1997-yilda respublika xalq amaliy san’ati va hunarmandlari ustalarining “Usto” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tashkil topdi. Uyushmaning tashkil etilishi mamlakatimizda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, noyob va yo‘qolib ketgan hunarlarni qayta tiklash, mavjud resurslardan foydalangan holda qo‘l mehnati bilan san’at asari yaratayotgan hunarmandlarimiz ishlarini munosib baholash, ular yaratgan badiiy ijod namunalarini nafaqat yurtimizda, balki xorijiy davlatlarda ham namoyish etish, mehnat va ijod qilishlari uchun sharoit yaratish, mehnatlarini rag‘batlantirish borasida muhim qadam bo‘ldi [24].

Hozirda jahon miqyosida o‘tkazilayotgan ko‘plab nufuzli ko‘rgazma va festivallarda hunarmandlarimiz o‘z bezak uslubi asosida yaratgan mahsulotlari bilan ishtirok etib kelmoqda. O‘nga yaqin hunarmandlarimizning shaxsiy ko‘rgazmalari tashkil qilingan. Har yili uyushma a’zolaridan o‘ndan ortig‘i Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash fondidan grant mablag‘lari olib, o‘z faoliyatlarini rivojlantirishga sarflamoqdalar. Bu kabi imtiyozlardan munosib foydalanayotgan hunarmandlar Navro‘z, Mustaqillik bayramlari munosabati bilan o‘tkazib kelinayotgan tadbirlarda va turli ko‘rik-tanlovlarda faol ishtirok etishmoqda, xususan, O‘zbekiston Prezidenti sovrini uchun har yili o‘tkaziladigan “Tashabbus” ko‘rik-tanlovi; “Yosh ijodkorlar”, “Usta-shogird” ko‘rgazmalari; “O‘zbekiston xalq amaliy san’ati – dunyo nigo-

hida”, “Mustaqillik nafasida kamol topgan hunarmandlar”, “Xalq iste’mol tovarlari ko‘rgazma savdosi”, “Yosh kulollarning respublika ko‘rgazmasi”, “Mustaqil yurt hunarmandlari”, “Ipak va ziravorlar”, “Atlas bayrami” festivallari, “Vatanim taraqqiyotiga mening hissam”, “Yurt istiqboli”, “Yosh tadbirkor – yurtga madadkor”, “Yilning eng faol yosh mutaxassisi”, “Mening biznes g‘oyam” kabi tanlovlar [25] shular jumlasidandir.

“Zargar – 2000” ko‘rgazmasida O‘zbekiston zargarlik san’atining turli yo‘nalishlari namoyish etildi. Unda zamonaviy mohir zargarlar F.Dadamuhamedov, G.Yuldasheva, M.Dadamuhamedovlarning [26] asarlari joy oldi. Ular o‘z namoyishlarida XIX–XX asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan zargarlik san’at turining badiiy an’analarini jonlantirib, turli mahalliy maktablar – Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Farg‘ona, Surxondaryo texnikalaridan foydalandilar. Jumladan, milliy sirg‘alardan “uch ayoqli sirg‘a” (uch oyoqli halqali sirg‘alar), “holak” (sigir ko‘zlari shaklidagi sirg‘alar), “uyisirg‘a” (uy shaklidagi sirg‘alar), “qashqar-baldoq”, “qoziq sirg‘a” kabilarni sanab o‘tish mumkin. Ustalarning har bir asari o‘ziga xos majoziy va hissiy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

2021-yil Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) qoshidagi Madaniyat institutining “ECO Heritage” jurnalida “An’anaviy o‘zbek milliy liboslari” [27] sarlavhali maqola chop etildi. Maqolada ota-bobolari merosini davom ettirib kelayotgan hunarmandlar sulolalari mehnati tufayli O‘zbekistonning zargarlik san’ati an’analari saqlanib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgani, O‘zbekiston zargarlik do‘konlaridagi o‘zbeklarga xos milliy uslubda tayyorlangan oltin va kumush buyumlar haqida aytildi. Shuningdek, zargarlik san’ati ajdodlar tomonidan ming yillar davomida to‘plangan bilim va hunarmandchilik sirlarini asrab-avaylab, davom ettirib kelinayotgani o‘ziga xos miliy madaniyat namunasi ekanligi, o‘zbek zargarlarining betakror uslubiga bo‘lgan qiziqish mamlakat tashqarisida ham ortib borayotgani qayd etildi.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Farg‘ona vodiysi aholisi turmush tarzida XIX asr oxiri va XX asr davomida turli ijtimoiy, siyosiy beqarorlik, notinchlik va Sovet Rossiyasining mustamlaka siyosati tufayli ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayniqsa, mahalliy an’analarga, milliy urf-odatlarga, etnik birdamlik va ozodlikka chorlovchi har qanday xatti-harakatlarga chek qo‘yildi. Va oqibatda boy amaliy san’at namunalari talon-taroj qilindi, barcha xalq boyliklari Rossiya san’at va madaniyat muzeylarini bezadi. O‘rniga zavod va fabrikalarda ishlab chiqarilgan zeb-ziynat buyumlari, bir xil shakl va mafkuraviy ko‘rinishni o‘zida mujassamlashtirgan taqinchoqlar mahalliy bozorlarni egalladi. Taqinchoqlardagi transformatsion jarayon ularning ijtimoiy vazifalarini o‘zgartirib yubordi va taqinchoqlar bilan bog‘liq an’analar asta-sekinlik bilan unutila boshlandi. Aslida mustamlaka davlat maqsadi ham shu edi, ya’ni xalqlarning milliy an’analarini yo‘q qilish va hukmronlikni zo‘ravonlik va talonchilik yo‘li bilan amalda ushlab turishdan iborat edi. XX asrga kelib xalq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar tufayli aholining katta qismi qishloq xo‘jaligiga jalb etildi va zargar hunarmandlarga nisbatan ham qatag‘on amalga oshirildi. Ularning mol-mulklari musodara etilib, o‘zlari uzoq o‘lkalarga surgun qilindi. Endi bozorlarda zargarlik do‘konlari tugatilib, davlat ixtiyoridagi artellar faoliyat boshladi. Ming yillar osha qadrlangan an’analar, qadriyatlarga putur yetkazildi, yosh avlodga ota meros kasblar o‘rgatilmadi, ayollarning ham ijtimoiy qarashlari majburan o‘zgartirildi. Endi og‘ir va ko‘rimsiz deb topilgan mahalliy taqinchoqlar o‘rniga yengil, kichik hajmli zavod taqinchoqlari taqish yurish urfga kirdi. Siyosiy mafkura taqinchoqlar shaklini tubdan o‘zgartirib yubordi. Go‘zal, ko‘rkam va mahorat bilan ishlangan taqinchoqlar o‘rnini qizil bayroq ramzi aks etgan taqinchoqlar egalladi.

Adabiyotlar:

1. *Саримсоқов М.* Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – 216 б.

2. *Давлатова С.* Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида). Тарихий-этнологик тадқиқот. – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – 368 б.

2. *Ахроров И.* Тақинчоқлар таърифи // Саодат, 1997. – № 3. – Б. 27.

3. *Шониёзов К.Ш., Исмаилов Х.И.* Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX – начало XX в. – Тошкент: Фан, 1981. – 126 с.

4. *Жумаев А.Ш.* XIX асрнинг охири – XX асрда бошлари Бухоро воҳаси ўзбек ва тожикларида бола туғилиши ҳамда тарбияси билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар: тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 1991. – 212 б.

5. *Қурбонова Н.* Ўзбек болалар маросим фольклори: филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.

6. Этнографик тадқиқот натижалари. Дала маълумотлари. Фарғона вилояти Марғилон тумани, 2022.

7. *Лобачева Н.П.* Что такое свадебний обряд? // Этнографическое обозрение, 1995. – № 4. – С. 55–64.

8. *Фахритдинова Д.* Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства, 1988. – 204 с.

9. *Давлатова С.Т.* XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрда Фарғона водийси анъанавий ҳунармандчилиги ҳолати // “Фарғона водийси тарихи янги тадқиқотларда” мавзусидаги иккинчи республика илмий анжумани. – Фарғона, 2012. – Б. 223–228.

10. *Абдуллаев Т., Фахретдинова Д., Хакимов А.* Песнь в металле. Народное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1986. – 252 с.

11. *Аширов А.* Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. -– Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 272 б.

12. *Чвырь Л.А.* Таджикские ювелирные украшения **(**Материалы к историко-культурному районированию Таджикистана). – Москва: Наука, ГРИЛ, 1977. – 144 с.

13. *Борозна И.Г.* Некоторые материалы об амулетах-украшениях населения Средней Азии. // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. – Москва: Наука, 1975. – 346 с.

14. *Абдуллаев Т.А., Ҳасанова Т.А.* Одежда узбеков (XIX – начала XX веков). – Ташкент: Фан, 1978. –116 с.

15. *Шониёзов К.* Узбеки-карлуки (Историко-этнографический очерк). Ташкент: Фан, 1964. –195 с.

16. Қуръони Каримнинг машҳур суралари фазилати (55-сура, 58-оят.) / Нашрга тайёрловчи: Аббос Аҳмад, Иброҳим Нуруллоҳ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва. санъат нашриёти, 2021. – 672 б.

17. *Беруний Абу Райҳон.* Китоб ал-Жамохир фи-Маърифат ал-Жавохир (Минерология). – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 488 б.

18. *Гулямов Я.Г.* Из истории организации ремесла в Ферганской долине в XIX – начале XX в. // Самаркандский университет. Труды. Новая серия. Вып. 329. – С. 24–34.

19. Дала маълумотлари. Андижон вилояти Асака тумани, заргар уста Раим Ражабов фарзандлари. 2022.

20. *Тўхтаев А.Қ.* Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик ва уни “Социолистик” асосда саноатлаштиришнинг оқибатлари: тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2001. – 245 б.

21. *Фармонова Б.А.* Ремесленное производство в Ферганской долине во второй половине XIX – начале XX в. Автореф. дисс... канд. ист. наук. –Тошкент, 1995. – 30 с.

22. *Дадамухаммедов Ф.Б.* XIX – XXI аср бошлари Ўзбекистон заргарлик мактабларининг маҳаллий хусусиятлари: санъатшунослик фанлари номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2023. – 22 б.

23. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 114-модда. [Интернет манба]. URL: https://lex.uz/ru/docs/46260 (Мурожаат этилган сана: 03.11.2022)

24. “Наврўзимдан нурафшон юртим!” мавзусида ҳунармандлар фестивали. // “Кўкалдош” ўрта махсус ислом билим юрти матбуот хизмати [Интернет манба]. URL: https://kukaldosh.uz/04/04/2019/3230 (Мурожаат этилган сана: 03.11.2022).

25. Uyushmaning faoliyatiga doir [Internet manba]. URL: https://handicraftman.uz/about-me/ (Мурожаат этилган сана: 12.08.2023)

26. *Акилова К.* “Ювелирия–2000”: поиски совершенства. // “Санъат” журнали, 2000. Выпуск. – № 4. [Электронный ресурс]. URL: https://sanatmagazine.uz/2000/2000-4rus/kamola_akilova/ (Дата обращения: 16.11.2022)

27. An’analar va urf-odatlar. [Internet manba]. URL: https://uza.uz/uz/posts/ horizh-nashrida-milliy-urf-odat-va-ananalarimiz-milliy-liboslarimiz-haqida_290304 (Мурожаат этилган сана: 03.08.2023)

ETHNOGRAPHY OF UZBEK WOMEN'S JEWELRY

Yayra R.Turaboyeva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 22-31.

[1]Andijan Institute of Agriculture and agrotechnologies, Andijan, 170600, Oliygoh str. 1 (Uzbekistan). E-mail: agai_info@edu.uz

Keywords: Jewelry, jewelry, neck amulet, chest amulet, armpit amulet, ruby stone, necklace, emerald stone, zabarjat, Feruza stone.

Jewelry performed one of the important functions in family-household rituals. Among the inhabitants of the Fergana Valley, the birth of a child, a wedding wedding, a number of paintings associated with jewelry in mourning ceremonies-rusms were carried out. In Uzbekistan, the role of jewelry in the system of children's painting-duties is distinguished. The birth of a child is considered a happy event, and family members begin to see this separately. For example, when a "moon-day"(that is, moments of the birth of a child) approaches from a pregnant woman, or during childbirth, all buttons, a handkerchief are removed from a woman's clothes, a braid is spread out, and her jewelry(beads, earrings, rings) is removed. In Aks Hol, nodes were believed to link the infant's path to birth. It was also believed that if a bead was wrapped around the neck of a pregnant woman, her belly child would be wrapped around her navel. Mothers saw a child symbol on the symbol of beads.

Jewelers and Zoroastrian Masters from the outside very rarely disciplined unfamiliar human children from the outside. In these types of crafts, there is mainly the udum of inheritance of the profession, and almost all jewelers and zardozes were masters. Unlike other Uzbek region Jewelers in the sources, there were also disciples who were not family members among the Fergana jewelers (19th – early 20th centuries), and the period of study of the trade stretched from 10 to 15 years. Relying on the information given by his informants, it can be said that jewelers chose as apprentices from among more family members and taught their trades precisely to the boys of the family, a tradition that has been maintained among several generations of the family until the present.

At the "Zargar-2000" exhibition, various directions of Uzbek jewelry art were presented. In it, modern skillful jewelers F. Dadamuhamedov, G. Yuldasheva, M. Dadamuhamedov's own works took place. In their shows, they revived the artistic traditions of the jewelry art type in Central Asia in the 19th and 20th centuries and used the techniques of various local schools: Bukhara, Samarkand, Khiva, Tashkent, Fergana, Surkhandarya. National earrings include" three-bear earrings "(three-legged ring earrings)," holak "(cow-eye-shaped earrings)," House-earring "(house-shaped earrings)," Brown-Baldock"," pile earrings". Each work of the Masters is characterized by having a specific figurative and emotional character.

2021 an article titled "Traditional Uzbek national costumes" was published in the ECO Heritage magazine of the Institute of Culture under the organization of Economic Cooperation (IHT). The article said that the traditions of Uzbek jewelry are preserved and passed down from generation to generation, Gold and silver products made in the national style of Uzbekistan in Uzbek jewelry stores, interest in the unique style of Uzbek jewelers also increased outside the country, jewelry art is a kind of millennial culture na'muna, which has been preserving and continuing the secrets of.

References:

1. Sarimsoqov, M. (1986) *O'zbek marosim folklori* [Uzbek ritual folklore]. Tashkent: Fan

2. Davlatova, S. (2018) *O'zbek an'anavij hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida* (O'zbekistonning janubiy hududlari misolida). Tarixiy-etnologik tadqiqot [Historical-ethnological study of Uzbek traditional crafts in the context of historical processes (on the example of the southern regions of Uzbekistan]. Tashkent: Yangi nashr.

2. Ahrorov, I. (1997) Taqinchoqlar ta'rifi [Description of jewelry]. *Saodat*. No 3. Pp. 27-B

3. Shoniyozov, K.Sh., Ismailov, H.I. (1981) *Etnograficheskie ocherki material'noj kultury uzbekov konec XIX – nachalo XX v*. [Ethnographic sketches of the material culture of the Uzbeks the end of the XIX - beginning of the XX century]. Tashkent: Fan.

4. Jumaev, A.Sh. (1991) *XIX asrning ohiri XX asrda boshlari Buhoro vohasi o‘zbek va tojiklarida bola tug‘ilishi hamda tarbiyasi bilan bo‘liq urf-odat va marosimlar* [Traditions and ceremonies related to the birth and upbringing of children in Uzbeks and Tajiks of the Bukhara oasis at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century]. Dissertation for the degree of Candidate of Historical Sciences. Tashkent.

5. Qurbonova, N. (1994) *O‘zbek bolalar marosim folklori* [Uzbek children’s ritual folklore]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Tashkent.

6. (2022) *Dala ma’lumotlari. Farg‘ona viloyati Marg‘ilon tumani* [Field data. Marghilon district, Fergana province].

7. Lobacheva, N.P. (1995) Chto takoe svadebnij obryad? [What is a wedding ceremony]. *Etnograficheskoe obozrenie*. No 4. Pp. 55-64.

8. Fahritdinova, D.(1988) *Yuvelirnoe iskusstvo Uzbekistana* [Jewelry art of Uzbekistan]. Tashkent: Izdatelstvo literatury i iskusstva.

9. Davlatova,S.T. (2012) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrda Farғona vodijsi an”anavij hunarmandchiligi holati [The state of the traditional crafts of the Fergana Valley in the second half of the XIX-XX centuries]. In: “Fag‘ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda” mavzusidagi ikkinchi respublika ilmiy anjumani [The second republican scientific conference on the history of the Fagana Valley in new researches]. Farg‘ona. Pp. 223-228.

10. Abdullaev, T., Fahretdinova, D., Hakimov, A. (1986) *Pesn v metalle*. *Narodnoe iskusstvo Uzbekistana* [A song in metal. Folk art of Uzbekistan]. Tashkent: Izdatelstvo literatury i iskusstva imeni Gafura Gulyama.

11. Ashirov, A. (2007) *O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari* [Ancient beliefs and rituals of the Uzbek people]. Tashkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

12. Chvir, L.A. (1977) *Tadzhikskie yuvelirnye ukrasheniya* (Materialy k istoriko-kulturnomu rajonirovaniyu Tadzhikistana) [Tajik jewelry (Materials for the historical and cultural zoning of Tajikistan)]. Moscow: Nauka.

13. Borozna, I.G. (1975) Nekotorye materialy ob amuletah-ukrasheniyah naseleniya Srednej Azii [Some materials about amulets-ornaments of the population of Central Asia]. In: *Domusulmanskie verovaniya i obryady v Srednej Azii.* [Pre-Muslim beliefs and rituals in Central Asia]. Moscow: Nauka.

14. Abdullaev, T.A., Hasanova, T.A. (1978*) Odezhda uzbekov* (XIX - nachala XX vekov) [Uzbek clothing (XIX - early XX centuries)]. Tashkent: Fan.

15. Shoniyozov, K. (1964) *Uzbeki-karluki* (Istoriko-etnograficheskij ocherk) [Uzbeks-Karluks (Historical and ethnographic essay)]. Tashkent: Fan.

16. Abbos Ahmad, Ibrohim Nurulloh. (ed.) (2021) *Qur’oni Karimning mashhur suralari fazilati* (55-sura, 58-oyat) [The suras of Karim Quran is the virtue of the famous]. Tashkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

17. Beruniy, A.R. (2017) *Kitob al-Jamohir fi-Ma’rifat al-Javohir* (Minerologiya). [Kitab al-Jamohir fi-Ma’riqat al-Jawahir (Mineralogy)]. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

18. Gulyamov, Ya.G. (1977) Iz istorii organizacii remesla v Ferganskoj doline v XIX – nachale XX v. [From the history of the organization of crafts in the Fergana Valley in the 19th – early 20th centuries]. *TSGU*. Vol. 329. Samarkand. Pp. 24-34.

19. (2022) *Dala ma’lumotlari. Andijon viloyati asaka tumani, zargar usta Raim Razhabov farzandlari* [Field data. Children of jeweler master Raim Rajabov, Asaka district, Andijan region].

20. To‘htaev, A.Q. (2001) *O‘zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni “Sociolistik” asosda sanoatlashtirishning oqibatlari* [Consequences of national craftsmanship in Uzbekistan and its industrialization on a “sociolistic” basis]. Dissertation for the Candidate of historical Sciences. Tashkent.

21. Farmonova, B.A. (1995) *Remislennoe proizvodstvo v Ferganskoj doline vo vtoroj polovine XIX – nachale XX v.* [Remissioned production in the Ferghana Valley in the second XIX half of the early XX century]. Abstract of Dissertation for the Candidate of historical Sciences. Tashkent.

22. Dadamuxammedov, F.B. (2023) *XIX – XXI asr boshlari O‘zbekiston zargarlik maktablarining mahalliy xususiyatlari* [Local features of Uzbek jewelry schools of the XIX-early XXI centuries]. Abstract of Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies Sciences. Tashkent.

23. (1998) *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi* [Bulletin Of The Parliament Of The Republic Of Uzbekistan]. No. 5-6. Article 114. [Online]. URL: https://lex.uz/ru/docs/46260 (Date of Access: 03.11.2022)

24. (2019) *“Navro‘zimdan nurafshon yurtim!” mavzusida hunarmandlar festivali.* // “Ko‘kaldosh” o‘rta maxsus islom bilim yurti matbuot xizmati [My country is bright from Navruz!” festival of artisans]. [Online]. URL: https://kukaldosh.uz/04/04/2019/3230 (Date of Access: 03.11.2022)

25. (2017) *Uyushmaning faoliyatiga doir* [Regarding the activity of the association]. [Online]. URL: https://handicraftman.uz/about-me/ /3230 (Date of Access: 12.08.2023)

26. Akilova K. (2000) *“Yuveliriya-2000”: poiski sovershenstva* [Jeweler-2000”: the search for perfection]. *San’at.* Issue 4. [Online]. URL: https://sanatmagazine.uz/2000/2000-4rus/kamola_akilova/ (Date of Access: 16.11.2022)

27. *An’analar va urf-odatlar*. [Traditions and customs]. [Online]. URL: https://uza.uz/uz/posts/horizh-nashrida-milliy-urf-odat-va-ananalarimiz-milliy-liboslarimiz-haqida_290304 (Date of Access: 03.08.2023)

Muallif haqida ma’lumot:

TO‘RABOYEVA Yayra Rustamjonovna – Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti. E-mail: tyay-raxon@mail.ru